

ERKAKLAR KOSTYUMINING HOZIRGI HOLATI, TURLARI VA USLUBLARI TAHLILI

NamDTU doktorant
NASIROVA MUQADDAS BAXTIYAROVNA

Kalit soʻzlar: trikotaj, notipoviy qomat, suprem, pandeks, pike, polester, ekspluatatsiya, elektron tarozi.

Annotatsiya: Mavzuning dolzarbligi, oldimizga qoʻyilgan maqsadga koʻra notipoviy qomatli erkaklarning kiyimga boʻlgan ehtiyojlarini oʻrganish, ularni tahlil qilish asosida yangi turdagi sifatli trekotaj matolarining fizik-mexanik xususiyatlarini oʻrganish va tahlil qilish muxim ahamiyatdan biri hisoblanadi.

Ключевые слова: трикотаж, нетиповой фигура, супрем, спандекс, пикэ, полиэстер, эксплуатация, электронные весы.

Аннотация: актуальность темы заключается в том, что в соответствии с поставленной перед нами целью изучение потребностей мужчин нетипичного телосложения в одежде, изучение и анализ физико-механических свойств качественных трикотажных тканей нового типа на основе их анализа является одним из важнейших аспектов.

Keywords: knitwear, atypical figure, supreme, spandex, pike, polyester, exploit, electronic scales.

Abstract: the relevance of the topic lies in the fact that, in accordance with the goal set for us, the study of the needs of men of atypical physique in clothing, the study and analysis of the physical and mechanical properties of high-quality knitted fabrics of a new type based on their analysis is one of the most important aspects.

Erkaklar klassik kostyumi shim va pidjakdan iborat boʻlib, baʼzan unga nimcha ham qoʻshiladi. Pidjak koʻylak, galstuk va turli hildagi qoʻshimcha aksesuarlar bilan toʻldiriladi va biznes hamda rasmiy ijtimoiy tadbirlar uchun qabul qilingan kiyim hisoblanadi.

Pidjak tayyor holda sotib olinishi yoki mijoz oʻlchamlariga mos ravishda yakka tartibda tikilishi mumkin. Ikkinchi variant afzalroq, chunki notipoviy yaʼni qorindor, bukchaygan va kekkaygan qomatli yoki oyoqlarida biror nuqsonli erkak boʻlsa unga yakka tartibda pidjaklar aniq oʻlchamlar asosida mukammal qilib oʻlchab tikilgani maʼqul.

Erkaklar pidjagining bir necha asosiy uslublari mavjud:

Inglizcha uslub – qatʼiy klassik uslubni yaxshi koʻradiganlar uchun juda mos. Yelkalari kichkina va koʻtarilmagan ozgʻin erkaklar uchun koʻproq toʻgʻri keladi. Yuqorida listochkali choʻntak, yon choʻntaklari esa qiya shakilda ichki qopqoqli yoki

qoplama cho'ntaklidir. Latskani yupqa hamda ochiq yoki yopiq holatda bo'lishi mumkin. Pidjak bir yoki ikki qator tugmali, bel qismi ozgina tor hamda ikkita shlitsasi bilan farq qiladi. Bunday uslubdagi kostyum ikki yoki uch qismli bo'lib ya'ni pidjak, shim va kamzildan iborat bo'ladi (-rasm, a).

Italyancha uslub – nafis va har qanday qomat uchun mos. Pidjak asosan belga yopishib turadi, oddiy to'g'ri bichimli, yelkalari keng va kotarilgan, latskani enlik ochiq yoki yopiq holatda bo'ladi. Pidjak odatda bir, ikki yoki uchta tugmali va ikki ochiq shlitsali bo'lishi mumkin. Shimlari to'g'ri bichimlidir. Asosan yengil matolar bilan tikilishi ajralib turadi. Ko'proq yosh qomatli erkaklarga mos keladigan uslubdir (-rasm, b).

Fransuzcha uslub – kichik bo'yli erkaklarga mos, klassik, rasmiy va deyarli hech qanday bezak elementlariga ega emas bo'lgan ko'rinishdagi uslub. Pidjakning yelkalari yumaloq shaklda bichilganligi uchun u chiroyli ko'rinadi, pidjakning ko'krak qismi keng, shimining esa son qismi biroz tor bo'lgan uslubdir (-rasm, s).



a) Inglizcha



b) Italyancha



s) Fransuzcha



d) Olmoncha



e)

Amerikancha

1-rasm. Erkaklar pidjaglarining besh hil asosiy uslublari.

Olmoncha uslub – yelkalari keng va uzunroq pidjak bo'lib, biroz tor va erkin bichimli. Bu uslub qomatni jiddiy ko'rsatishga yordam beradi. Pidjakni asosan g'ijimlanmaydigan va shaklini saqlaydigan maxsus matodan tikiladi. Tugmalar mato yordamida qoplanadi va qo'l bilan tikiladi (-rasm, d).

Amerikacha uslub– qulay va oddiy, to'ladan kelgan erkaklarga mos pidjakdir. Yumaloq siluetli, yengil, ichki astarsiz, orqa qismida bitta shlitsalik bo'lib, ko'proq norasmiy holatlar uchun mos keladigan uslubdir. Pidjak bir yoki ikki qator tugmali bo'ladi (-rasm, e).

Yevropacha uslub – 1980-yillarda mashhur bo'lgan. Baland bo'yli erkaklar uchun mos pidjakdir. Uzunroq pidjak (dumba qismidan 5–7 sm pastga tushadi). Yelkalari keng pidjaklar va erkin shimlar. Past bo'yli erkaklar uchun moslashgan variant: tor shim, toraygan pidjak.

Dastlab barcha erkaklar pidjaklari bir xildek tuyulishi mumkin. Ko'pchilik faqat frakni smokingdan ajrata oladi. Biroq erkaklar pidjakni nafaqat maqsadiga ko'ra (tantanali tadbir, ish uchrashuvi yoki kundalik kiyim), balki modeliga (bir bortli, ikki bortli va uch bortli) va bichimiga (inglizcha, italyancha, amerikanacha va boshqalar) ko'ra ham farqlanadi.

Bir qatorli (odnobortny). Bu eng mashhur va qulay modellardan biri bo'lib, erkaklarning 80% undan foydalanadi. Xususiyatlari: Bitta tomondagi tugmalar qatori hamda ikkinchi tomonda petli teshiklar mavjud. Afzalliklari: universalligi tufayli deyarli har qanday qomatga mos keladi. Oson yechilib-kiyiladi;

Ikki qatorli (dvuhbortny). Kamroq uchraydigan model bo'lib, rasmiy ko'rinish beradi. Rasmiy tadbirlarda tugmalarni to'liq qadash tavsiya etiladi.

Ikki qator tugmalarga ega Pidjakning ikki tomoni bir-biriga anchagina yopishib turadi. Qorindor bo'lmagan, baland bo'yli erkaklar uchun mosdir;

Xususiyatlari: bir qatorli pidjak, bitta matodan tikilgan jilet va shimni o'z ichiga oladi. Afzalliklari esa etiket bo'yicha pidjakni ruxsatsiz yechishga ruxsat etiladi. Qomatga mos modelni tanlaganingiz barcha vaziyatlar uchun bitta pidjak yetarli degani emas. Turli vaziyatlar uchun turli xil kostyumlar zarur.

Erkaklar kostyumlari maqsadiga ko'ra ish uchrashuvi, tantanali tadbir yoki kundalik kiyim uchun mos bo'lishi kerak. Har bir maqsad uchun mos kostyum turini tanlash muhim.

“Smoking” ilgari norasmiy uchrashuvlar yoki do'stlar davrasida kiyilgan. Xususiyatlari: Ochiq ko'krakli qora pidjak (ba'zan oq pidjak), uzun atlas yoki ipak yoqali, bir qatorli yoki ikki qatorli; bitta yoki uchta tugma bilan qadaladi. Qora shim, oq ko'ylak, galstuk-babochka bilan farqlanadi. Ko'krak cho'ntagida ro'molcha va belbog' (yoki jilet) bilan to'ldiriladi.



Smoking



Frak



Norasmiy



Casual



Fashion item



Biznes

2 -rasm. Erkaklar kostyumining turlari.

“Frak” rasmiy kechki tadbirlar uchun mo'ljallangan klassik kostyum. Xususiyatlari: old qismi qisqa, orqasi uzun va tor qanot shaklidagi ega (ularni "qaldirg'och dum" deb ham atashadi). Oq ko'ylak, jilet, qo'lda bog'lanadigan oq galstuk-babochka va qora yaltiroq tuflilar bilan kiyiladi. Shimlari tor, baland belga ega, yon tomonlarida ikkita ipak tasmasi bor, belbog'siz kiyiladi. Ko'krak cho'ntagida oq ro'molcha va qo'lda oq qo'lqop bilan to'ldiriladi.

“Norasmiy” pidjaklar odatda kundalik ishbob yoki norasmiy tadbirlar uchun mos keladi. Ular gulsiz matolardan va to'qroq ranglardan tikiladi, yakka tartibda tikilgan uslubni aks ettiradi, lekin shu bilan birga chiroyli ko'rinadi.

“Casual” – sayr qilish, do'stlar bilan uchrashuv, oilaviy bayramlar yoki norasmiy tadbirlar uchun mos. Galstuksiz, ochiq yoqali ko'ylak bilan kiyiladi. Pidjak va shim turli matolardan bo'lishi mumkin;

“Fashion item” – bir mavsum uchun mo'ljallangan, noodatiy matolardan (paxta, zig'ir, ipak) tikilgan. Biroz beparvolik bilan kiyiladi, g'ijim ko'rinishi mumkin. Kechalar va kundalik kiyim sifatida mos keladi.

“Biznes” pidjakning bichimi bilan ajralib turadi. Ular an'anaviy uslub va mato tanlovi bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Насирова М.Б. Магистр академик диссертацияси -2022.
2. Икрамов. Ш.Р и другие Основные показатели физико-механических свойств хлопко-шелковой пряжи // ТТИЛП Ж. «Проблемы текстиля».
3. Борухов Г.А. Трикотажные полотна из нитей фасонного кручения // Ж. «Трикотажное производство», №6. 1988 г.
4. Набиджанова Н.Н. Тикув буюмларини лойихалаш ва технологиясининг назарий асослари фанидан ўқув-услугий мажмуа. Наманган-2022 йил.
5. Мальцева Е.П. «Тикувчилик материалшунослиги» М.1986 йил.